

# YOSH TADQIQOTCHILAR

## TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI: PROFESSIONAL TA'LIMDA ASOSIY MANFAATDOR TOMONLARNING SIFATNI TA'MINLASH BO'YICHA SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH EHTIYOJLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Asliddin Odilov

Toshkent shahridagi Turin politeknika  
universiteti katta o'qituvchisi

### Abstract

The article analyzes the methodology for identifying which capacities are needed to meet professional education reforms with a focus on setting up a new quality assurance system at all levels. Capacity needs assessment identifies capacity gaps that exist between a current and future state. All new policies in the field of professional education require a certain capacity from the main stakeholders (national and local management bodies, professional educational institutions, individuals working in the professional education sector) in order to implement reforms as planned.

### Key words

professional education, capacity development, needs assessment, quality assurance, internal quality assurance, external quality assurance.

O'zbekistonda professional ta'lim sohasidagi islohotlar bir necha yillardan beri juda jadal amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, hozirgi jadal islohotlar sharoitida salohiyatni rivojlanish ehtiyojlarini baholash tahlilini o'tkazish juda muhim hisoblanadi. Zero, kadrlar

salohiyatidagi mavjud bo'shlqlar eng puxta ishlangan islohotlarning ham yetarlicha samara bermasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda professional ta'larning milliy sifatni ta'minlash tizimini Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitishda, sifatni ta'minlash ramkasi (EQAVET) standartlari va tavsiyalari asosida takomillashtirishni maqsad qilgan.

Islohotlarni rejalashtirilgan holda amalga oshirish uchun professional ta'lim sohasidagi barcha yangi o'zgarishlar asosiy manfaatdor tomonlardan (respublika va mahalliy boshqaruv organlari, professional ta'lim muassasalari, professional ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar) ma'lum bir salohiyatni talab qiladi (Robins, 2008). Shu bois, ushbu tadqiqot professional ta'linda sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish uchun muhim qadam hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – professional ta'lim sohasining barcha darajalarida yangi sifatni ta'minlash tizimini yaratishga yo'naltirilgan islohotlar talabiga javob berish uchun qanday salohiyatga ehtiyoj borligini aniqlash (xususan, yangi kompetensiyalarni shakllantirish, yetarlicha rivojlanmagan kompetensiyalarni mustahkamlash) metodologiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Maqolada dastlab professional ta'larning boshqaruv tizimi hamda sifatni ta'minlashda boshqaruv tarmog'idagi asosiy ishtirokchilarining o'rni va hamkorligi tahlil qilinadi. So'ngra sifatni ta'minlash bo'yicha salohiyatni rivojlantirish ehtiyojlarini baholashga turli yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi va muallif tomonidan ishlab chiqilgan salohiyatni baholash vositasi taqdim etiladi. Tadqiqot yakunida xulosalar qilinadi va professional ta'linda sifatni ta'minlash bo'yicha salohiyatni rivojlantirish ehtiyojlarini baholashga oid tavsiyalar beriladi.

### **Professional ta'lim tizimi boshqaruvi**

O'zbekistonda ta'lim sifatini ta'minlash tizimi nodavlat va davlat sektorlari ishtirokini o'z ichiga olgan bir nechta darajalardan iborat bo'lgan boshqaruv va ijro etish tizimlaridan tashkil topgan. Shu sababli, asosiy manfaatdor tomonlarning quyidagi guruhlarining salohiyatini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- *Respublika darajasidagi organlar (vazirliklar, tarmoq vazirliklari, kengashlar, malaka oshirish va ilmiy-tadqiqot institutlari);*
- *mahalliy boshqaruv organlari (vazirliklarning hududiy boshqarmalari);*
- *ish beruvchilar uyushmalari (tarmoq malaka kengashlari, professional uyushmalar, ish beruvchilar);*
- *professional ta'lim tashkilotlari (professional ta'lim muassasalari va kasbga yo'naltirish markazlari, shuningdek, professional ta'lim muassasalari biriktirilgan oliygochlari).*

1-jadvalda professional ta'linda sifatni ta'minlash sohasidagi asosiy manfaatdor tomonlar to'g'risida bat afsil ma'lumot keltirilgan.

<b>Asosiy manfaatdor tashkilotlar</b>	
Vazirlik va Respublika darajasidagi tashkilotlar va tuzilmalar	Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi Tizimida professional ta'lif muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha kengash Mehnat bozori tadqiqotlari instituti Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'lifi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
Ish beruvchilar va ularning vakillik tuzilmalari	Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha Tarmoq malaka kengashlari Ish beruvchilar uyushmalari Ish beruvchilar
Hududiy boshqaruv organlari va tuzilmalari	Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklarning hududiy boshqarmalari Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar
Professional ta'lif muassasalar	Kasb-hunar maktablari Kollejlar Texnikumlar

**1-jadval.** Professional ta'lif sohasidagi asosiy manfaatdor guruhlar

O'zbekistonda yaqinda amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar munosabati bilan mustaqil sifatni ta'minlash organi bo'lgan Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tugatilib, uning vazifalari ikkita ta'lif vazirligi – Maktabgacha va maktab vazirligi hamda Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga o'tkazildi .


Garchi sifatni ta'minlash tizimi aniq rollar va vazifalarga ega bo'lgan hamda funksiyalarida ba'zi takrorlanishlar mavjud bo'lgan ko'plab manfaatdor tomonlardan iborat tarmoqni o'z ichiga olsa- da, hamkorlikdagi tarqoqlik, guruhlararo (ishtirokchilar o'rtaсидаги) hamkorlikning yo'qligi hamda professional ta'lif tizimining boshqaruvi natijaga emas, balki resurslarga asoslanganligi sababli tarmoqdagi qoniqish darjasini nisbatan pastligicha qolmoqda (Renold, Caves & Zubovic, 2022). Xususan, Renold, Caves & Zubovic (2022) tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda professional ta'lif tizimi boshqaruvi qoniqarsiz (o'rtaча 5 balldan 2,28 ball) baholangan va buning sababi sifatida quydagilar ko'rsatilgan:

– asosiy manfaatdor tomonlarning ham guruhlararo, ham guruh ichidagi hamkorlikdan

qoniqish darajasi nisbatan past;

- O'zbekiston professional ta'limgoshchilar tarmog'ida mehnat bozori tomonidan vakillik qiluvchi va yo'naltiruvchi funksiyalarni ta'minlovchi vositachilar yo'q;
- guruhi ichidagi munosabatlar tarmoqdagi hamkorlikning katta qismini tashkil qiladi va aksincha guruhlararo hamkorlik deyarli mavjud emas. Bu esa institutsional hamkorlikning yo'qligidan dalolat beradi;
- subyektlar ish beruvchilar bilan ishlashadi, lekin ish beruvchilar tomonidan bunday faoliyat kuzatilmaydi. Ish beruvchilar, vazirlik va professional ta'limgoshchilar muassasalari bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik, ular uchun ortiqcha yuk ekanligini, shuningdek tizimdagagi professional uyushmalar ish beruvchilarining to'laqonli vakillik organi sifatida faoliyat yuritmasligini e'tirof etishgan;
- ish beruvchilar uyushmalari va savdo-sanoat palatasi tarmoqda to'liq ishtirok etmaydi.

Renold, Caves & Zubovic (2022) tomonidan O'zbekiston va Shveysariyadagi professional ta'limgoshchilar tizimlari taqqoslangan va 1-rasmida ular o'rtaqidagi farqlar vizual tarzdagi tahlili keltirilgan.



**1-rasm.** O'zbekiston va Shveysariyadagi professional boshqaruv tizimlarini qiyosiy taqqoslash

**Izoh:** a jadalligi natijasi) ifodalaydi, ranglar esa pastki o'ng burchakda ko'rsatilgan shkalaga muvofiq qanoatlanganlik darajalarini ifodalaydilar. Munosabatlar oqimi chap tarafda yuqoriga va o'ng tarafda pastga harakatlanadi. Tartib vertikal shaklda berilganligi bevosita iyerarxiyani aks ettirmaydi. Guruh ichidagi munosabatlar har bir subyekt guruhi nomi ostida gorizontal chiziq sifatida ko'rsatilgan. Shveysariya kantonlari hududiy davlat muassasalari guruhiga kiradi. Rasm faqat qiyosiy ma'lumotlar olish va kontekstni tushunish uchun keltirilgan.

Manba: Renold, U., Caves, K., & Zubovic, A. (2022).

Tashqi sifatni ta'minlash nuqtayi nazaridan funksiyalarni optimal taqsimlanishiga erishish hamda vazifalarni haddan ortiq ko'p ishtirokchilar o'tasida taqsimlanishini kamaytirish maqsadida sifatni ta'minlash tizimidagi joriy ishtirokchilarning o'rni, funksiya va vazifalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Shu o'rinda, ta'lim sifatini ta'minlashga mas'ul yagona mustaqil tashkilot tashkil etilishi, uning o'rni va mavqeini mustahkamlash masalalarini ko'rib chiqish dolzarb bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, ish beruvchilarning haqiqiy vakili bo'lgan va professional ta'limda ularning yetakchiligini ta'minlaydigan ish beruvchilar uyushmalarini (yoki tarmoq uyushmalari, savdo-sanoat palatalari va boshqalar) o'z ichiga olgan kooperativ boshqaruv tarmog'ini shakllantirishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

### **Salohiyatni oshirish ehtiyojlarini baholash metodologiyasi**

Salohiyatni rivojlantirish bo'yicha ehtiyojlarni baholash (SNA) hozirgi va kelajakdagi holat o'tasida mavjud bo'lgan salohiyatdagi bo'shliqlarni aniqlash imkonini beradi. Salohiyatni rivojlantirish ehtiyojini baholash va salohiyatni oshirish bo'yicha tadbirlar, umumiylar salohiyatni rivojlantirish jarayonining bir-biridan ajralmas uzviy qismlari hisoblanadi (South, Fairfax & Green, 2005). Bunda oldindan mavjud bo'lgan asosiy salohiyatlar, shuningdek, islohotlar jarayonida, boshqaruv o'zgarishi yoki boshqa shunga o'xshash sharoitlarda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy salohiyatlar aniqlanadi. Bundan tashqari, CNA jarayonida zarur bo'lgan salohiyat odatda mavjud bo'lgan salohiyatga nisbatan tahlil qilinadi, bu esa salohiyatni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni tushunib yetishni ta'minlaydi. Bu esa mavjud bo'lgan salohiyatni yanada mustahkamlash va yangi talab etilgan salohiyatni rivojlantirish bo'yicha qimmatli ma'lumotlar beradi hamda salohiyatni oshirish tadbirlarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

2-rasmda butun CNA jarayoni va ushbu tadqiqotda CNA uchun qo'llaniladigan yondashuvlar tasvirlangan.

## Salohiyatni rivojlantirish ehtiyojlar

Ehtiyojlar turlari va CNA darajalari	Shaxsning ehtiyojlar	Strategik ehtiyojlar	Tashkilot ehtiyojlar
Usullar	<ul style="list-style-type: none"> <li>So'rovnomalari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kabinet tadqiqoti</li> <li>Strategik va tarmoq dasturlari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kabinet tadqiqoti</li> <li>Fokus guruqlar va intervyular</li> </ul>
1-natija	Turli darajadagi ma'lumotlarni to'plash		
2-natija	Salohiyatni rivojlantirish ehtiyojlarini baholash natijalari		
3-natija	<ul style="list-style-type: none"> <li>Salohiyatni oshirish ehtiyojlarining ustuvorligini belgilash</li> <li>Salohiyatni oshirish bo'yicha tadbirlar dasturi</li> </ul>		

**2-rasm.** Salohiyatni rivojlantirish ehtiyojlarini baholash va tahlil qilish jarayoni

Manfaatdor tomonlarning salohiyatga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qilish maqsadida barcha tegishli manbalardan ma'lumot to'plash uchun turli xil ma'lumotlarni yig'ish usullari qo'llaniladi:

Ma'lumotlarni to'plash usullari			
Birlamchi manbalar		Ikkilamchi manbalar	
Miqdoriy usullar	Sifatli usullar	Hujjatlar	
So'rovnoma	Intervyu	Fokus guruh	Kabinet tadqiqoti

Kabinet tadqiqotida normativ-huquqiy hujjatlar, milliy va tarmoq strategiyalari, rivojlanish dasturlari, tegishli hisobotlar va boshqa hujjatlarni tahlil qilish orqali ma'lumot to'plash uchun foydalanilsa, birlamchi manbalardan chuqurroq ma'lumot olish uchun intervyu va so'rovnoma o'tkazish kabi boshqa usullardan foydalaniladi. Quyida ushbu usullarning ustun jihatlari va zaif tomonlari tahlil qilinadi hamda qaysi hollarda qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar keltiriladi (2-jadval).

**2-jadval.** Salohiyatni rivojlantirish bo'yicha ehtiyojlarni baholash usullari qiyosiy tahlili

Usullar	Kuchli tomoni	Kuchsiz tomoni	Qanday vaziyatlarda qo'llanilishi
Kabinet tadqiqoti	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sohadagi mavjud hujjatlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi;</li> <li>• Sohada yaxshi SWOT tahlili o'tkazish uchun asos hisoblanadi;</li> <li>• Mayjud ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi;</li> <li>• Mayjud haqiqiy va tekshirilgan ma'lumotlarga tayanadi;</li> <li>• Keyingi qadamlarni belgilash uchun asos hisoblanadi;</li> <li>• Ichki va tashqi hujjatlar tahlilini o'z ichiga oladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hujjatlardagi ma'lumotlarning eskirgaligi;</li> <li>• Mayjud hujjatlar har doim ham kerakli va ishonchli ma'lumotlar manbai bo'lmaydi;</li> <li>• Kerakli hujjatlar va ma'lumotlar foydalanish uchun ochiq bo'lmasligi mumkin;</li> <li>• Mayjud ma'lumotlarni tahlil qilish ko'p vaqt talab etadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Islohotlar olib borilayotgan vaqtda ishtirokchilar salohiyatini baholashda qo'llaniladi;</li> <li>• Sohadagi tashkilotlarning missiyasi, strategik rivojlanish yo'nalishlari, rejalar va faoliyatini o'rganishda foydalaniadi.</li> </ul>
So'rovnama	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yetarli qamrov darajasini ta'minlaydi;</li> <li>• Anonimlikni ta'minlaydi;</li> <li>• Natijalar sir saqlanishini ta'minlaydi;</li> <li>• Amalga oshirishning osonligi;</li> <li>• Miqdoriy ma'lumot yig'ish uchun foydalaniadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ishtirokchilar so'rovnomaga javob bermasliklari ham mumkin;</li> <li>• Aniq maqsadga yo'naltirilmagan va savollar soni ko'p bo'lgan so'rovnomalar zerikarli bolishi mumkin.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Katta miqdordagi ishtirokchilardan miqdoriy ma'lumotlar to'plashda qo'l keladi;</li> <li>• Ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilishning boshqa usullari bilan birgalikda qo'llanilishi asosli natijalarga erishilishini ta'minlaydi.</li> </ul>

Interview	<ul style="list-style-type: none"> <li>Muammoning mohiyatini tushunib yetishda qo'l keladi;</li> <li>Turli fikrlarni anglash imkonini beradi;</li> <li>Ehtiyojlarni baholash jayoniga ishtirokchilarning jalb etishga yordam beradi;</li> <li>Boshqa usulda olingan ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlashga yordam beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Tashkil etish bilan bog'liq qiyinchiliklar;</li> <li>Ko'p vaqt talab etadi va ishtirokchilarning bo'sh vaqtlariga bog'liq;</li> <li>Ishtirokchilar sonining ko'pligi ma'lum vaqt va mablag' talab etadi;</li> <li>Ishtirokchilar har doim ham haqiqiy ehtiyojlarini to'g'ri ifoda eta olmaydilar;</li> <li>Ba'zi ishtirokchilar intervyudan o'z noroziliklarini bildirish yoki boshqa muammolarni muhokama qilish sifatida foydalanishlari mumkin;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Strategik va tashkiliy darajada trening ehtiyojlarini to'g'risida ma'lumot toplashda qo'l keladi;</li> <li>Muammoni chuqur tadqiq etish imkonini beradi;</li> <li>Tadqiq qilinadigan mavzu yoki soha bo'yicha yetarli bilim va ma'lumotga ega bo'lgan holatda qo'l keladi;</li> <li>Ommaviy ravishda muhokama qilinmaydigan mavzularni tadqiq qilishda qo'l keladi.</li> </ul>
Fokus guruh	<ul style="list-style-type: none"> <li>Javoblarni tushunib yetishga yordam beradi;</li> <li>Cheklangan vaqtida ko'proq shaxslar bilan intervyu o'tkazishni ta'minlaydi;</li> <li>Guruh ishtirokchilari o'rtaida fikr almashinish va turli muammolarni muhokama qilish imkonini beradi;</li> <li>Turli fikrlarni solishtirish va umumiyl kesishish nuqtalarini topishni ta'minlaydi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Guruhdagi hamma ishtirokchi ham ba'zida ochiq-oydin gapirishni istamasliklari mumkin;</li> <li>Ba'zi ishtirokchilar bosh-qalarga gap bermaslik holatlari uchrab turadi;</li> <li>Ma'lum vaqt talab qiladi va ishtirokchilarning bo'sh vaqtiga bog'liq;</li> <li>Guruhn boshqarish va natijaga erishish uchun malakali fasilitator (guruhlarning o'zaro muloqotini ta'minlovchi shaxs) bo'lishi talab qilinadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Guruhdagi fikrlarni muhokama qilish aniq ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi;</li> <li>Boshqa usullarni qo'llashda yetarlicha vaqt bo'lmaganda qo'l keladi;</li> <li>Muammoni chuqur anglab yetish uchun qo'llaniladi;</li> <li>Intervyuga nisbatan ko'proq odamlar fikrini o'rganish imkonini beradi.</li> </ul>

Xalqaro e'tirof etilgan ta'lif sifatini ta'minlash ramkalari (ESG, EQAVET) asosida O'zbekistonda mavjud sifatni ta'minlash tizimidagi ishtirokchilarning salohiyatini tizimli kompleks tahlil qilish hamda sifatni ichki va tashqi ta'minlash kesimida asosiy manfaatdor tomonlarning salohiyatini rivojlantirish ehtiyojlarini baholash savolnomasi ishlab chiqildi. Shuni ta'kidlash joizki, sifatni ichki va tashqi ta'minlash tabiiy ravishda o'zaro bog'liq va bir-biriga asoslangan tizimlar hisoblanadi. Shu bois, ular yaxlit tizim sifatida rivojlanadi va ulardan birining o'zgarishi tabiiy ravishda ikkinchisiga ta'sir qiladi.

### **Ta'lif sifatini tashqi ta'minlash sohasida salohiyatni oshirish ehtiyojlarini baholash**

Professional ta'lifning sifatni tashqi ta'minlash tizimi uning asosiy tarkibiy qismalarini tashkil etuvchi oltita soha kesimida tahlil qilindi: sifatni ichki ta'minlash tizimini tan olish va qo'llab-quvvatlash, STT standartlari va jarayonlarini ishlab chiqilganligi, STT jarayonlarining amaliyatga joriy etilishi, ekspertlar tomonidan baholash, baholash natijalari va oqibatlari hamda hisobot va keyingi faoliyatni monitoring qilish.

Har bir soha uning muhim tomonlarini ifodalaydigan va o'lchaydigan elementlardan (ya'ni bayonotlardan) iborat bo'lib, respondentlardan sifatni ta'minlash bo'yicha tashqi jarayonlar va tartiblarni tavsiylovchi bayonotlarga qay darajada qo'shilishlari haqida savollarga javob berish so'raladi. 3-jadvalda tashqi sifatni ta'minlashning sohalari va elementlari haqida ma'lumotlar berilgan.

#### **3-jadval.** Tashqi sifatni ta'minlashning asosiy sohalari

SOHALAR	ELEMENTLAR
	Quyidagi fikrlarga qay darajada qo'shilasiz yoki qo'shilmaysiz?
	Ta'lif sifatini tashqi ta'minlash - bu asosan vazirlik va idoralar tomonidan ta'lif muassasalari faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligini nazorat qilishga qaratilgan jarayon
Ta'lif sifatini ichki ta'minlashning orni	Ta'lif sifatini tashqi ta'minlash - bu asosan professional ta'lif muassasasining ko'rsatayotgan ta'lif xizmatlari sifati uchun mas'uliyatini oshirish orqali ta'lif sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan jarayon
	Ta'lif sifatini tashqi ta'minlashda ta'lif sifatini ichki ta'minlash jarayonlarining samaradorligi hisobga olinadi
	Professional ta'lif muassasalari uchun ta'lif sifatini ta'minlashga va ularning hisobdorligiga aniq talablar belgilangan.

STT standartlari va jarayonlarining ishlab chiqilganligi	<p>Ta'lim sifatiga qo'yilgan talablar milliy darajada (Vazirlar Mahkamasi, Vazirlik) belgilanadi va mahalliy darajada tatbiq etiladi</p> <p>Professional ta'limda ta'lim sifatiga qo'yilgan minimal talablar belgilangan</p> <p>Ta'lim sifatini tashqi ta'minlashning barcha tartib-qoidalari milliy maqsad va vazifalarga muvofiq ishlab chiqilgan va belgilangan</p> <p>Barcha manfaatdor tomonlar, xususan ish beruvchilar ta'lim sifatini tashqi ta'minlash protseduralarini ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirot etadilar</p>
STT jarayonlarining amaliyatga tatbiq etilishi	<p>Ta'lim sifatini tashqi ta'minlashning tartib-qoidalari barcha uchun yagona (bir xil), oldindan belgilangan, foydali va ishonchli hamda e'lon qilingan</p> <p>Sifatni tashqi ta'minlash tizimi ta'lim muassasasining faoliyat natijalari va keyingi faoliyat to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarni olishga yordam beradi</p> <p>Sifatni tashqi ta'minlash professional darajada, shaffof va mantiqiy ketma-ketlikka amal qilingan tarzda amalga oshiriladi</p>
Ekspertlar tomonidan baholash	<p>Ta'lim sifatini tashqi baholash tarkibi ish beruvchilar, ta'lim oluvchilar va mustaqil ekspertlardan iborat bo'lgan tashqi ekspertlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi</p> <p>Ta'lim sifatini tashqi ta'minlashda ishtirot etadigan ekspertlar o'z vazifalarini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega</p>
Baholash natijalari va oqibatlari	<p>Ta'lim sifatini baholash natijalari bo'yicha qaror qabul qilish aniq dalillarga asoslangan holda, barcha tomonidan bir xil talqin qilinadigan aniq va oldindan ma'lum bo'lgan mezonlar asosida amalga oshiriladi</p>
Hisobot va keyingi faoliyatni monitoring qilish	<p>Ta'lim sifatini ta'minlash siyosatini samarali amalga oshirilishini monitoring qilish bo'yicha shakllangan tizim yo'lga qo'yilgan</p> <p>Ta'lim sifatini tashqi ta'minlash jarayonlari, xususan uning natijalari tashqi baholashdan o'tkazilgan ta'lim muassasalari va ta'lim dasturlari sifatining yaxshilanishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.</p>

## Xulosa va tavsiyalar

So'nggi yillarda ta'lif sifatini ta'minlash tizimining sifat nazorati va resurslarga yo'naltirilgan shakldan sifatni oshirish va natijaga yo'naltirilgan shaklga o'tish orqali modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, bunda ta'lif sifati, uni ta'minlash va doimiy yaxshilash bo'yicha asosiy mas'uliyat, professional ta'lif muassasalari zimmasida bo'lishi ko'zda tutilgan. Ta'lif sifatini ta'minlashning ichki va tashqi tizimlari bir-biriga o'zaro bog' langan hamda bu orqali hisobdorlik va sifatni yanada yaxshilash o'rtaсидаги muvozanatning ta'minlashi belgilangan.

Biroq, ushbu sa'y-harakatlarning o'zi yetarli bo'lmay, ular tizimda bir qator fundamental o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Birinchidan, joriy sifatni ichki ta'minlash tizimi o'zida asosan sifatni tashqi ta'minlash tizimining asoslari va ustuvorliklarini aks ettiradi. Tizimda sifatni ichki ta'minlash uchun ma'lum imkoniyat mavjud bo'lsa-da, uning asoslari va metodologiyasi sifatni tashqi ta'minlash tomonidan boshqariladi va professional ta'lif muassasalari sifat uchun egalik hissini tom ma'noda his qilmaydi. Ikkinchidan, barqaror sifatni ta'minlash tizimining yana bir muhim xususiyati bo'lgan ta'lif sifatini ichki va tashqi ta'minlash tizimlarining mustaqilligini ta'minlash milliy ta'lif sifatini ta'minlash tizimini yaratishdajuda muhim hisoblanadi. Butizim va uning asosiy ishtirokchilari har qanday uchinchi shaxslardan mustaqil ekanligini anglatadi. Sifatni ta'minlash tizimi ta'lif sifatini baholash xolisligini hamda qarorlar aniq dalillarga asoslangan, adolatli va asosli qabul qilinishini kafolatlashi kerak. Uchinchidan, sifatni ta'minlash tizimi, uning maqsadlari, metodologiyalari va natijalari barcha manfaatdor tomonlar (ta'lif oluvchilar, o'qituvchilar, professional ta'lifni boshqarish organlari, ish beruvchilar, milliy va hududiy darajadagi boshqaruva organlari) bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi hamda barcha manfaatdor tomonlar hamda jamiyatning ehtiyojlari va umidlarini hisobga olishi kerak. Va nihoyat, professional ta'lif tizimining barcha darajalarida to'liq ta'lif sifatni ta'minlash sikli joriy etilishi kerak. Sifatni ta'minlash tizimi sifatni yaratishning butun jarayoniga sarflangan resurslar va natijalar o'rtaсида shakllangan, qo'shilgan qiymat nuqtayi nazaridan qarashi kerak.

Tadqiqotda taklif etilayotgan baholash metodologiyasi professional ta'lifning barcha darajalarida sifatni ta'minlash bo'yicha salohiyatni rivojlantirish ehtiyojlarini tizimli baholash imkonini beradi. Baholash natijalari asosida esa qaysi sohalarda salohiyatni oshirish bo'yicha tadbirlar va treninglar zarurligi hamda qaysi sohalarga zudlik bilan e'tibor qaratish kerakligi to'g' risida muhim xulosalar chiqarilishini ta'minlaydi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Renold, U., Caves, K., & Zubovic, A. (2022). Governance of TVET in Uzbekistan. CES Studies, 31.
2. European Commission (2009). Recommendation of the European Parliament and of the Council of 18 June 2009 on the establishment of a European Quality Assurance

Reference Framework for Vocational Education and Training. 2009/C 155/01, Official Journal of the European Union. <http://eurlex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32009H0708%2801%29&from=EN>

3. ESG (2015). The Standards and guidelines for quality assurance in the European Higher Education Area: [https://www.enqa.eu/wp-content/uploads/2015/11/ESG\\_2015.pdf](https://www.enqa.eu/wp-content/uploads/2015/11/ESG_2015.pdf)
4. Robins, L. (2008). Making Capacity Building Meaningful: A Framework for Strategic Action. Environmental Management 42, 833–846. <https://doi.org/10.1007/s00267-008-9158-7>
5. South, J., Fairfax, P., Green, E. (2005). Developing an assessment tool for evaluating community involvement. Health Expectations. 8 (1): 64-73. [10.1111/j.1369-7625.2004.00313.x](https://doi.org/10.1111/j.1369-7625.2004.00313.x).